



ROLLI O'YINLAR VOSITASIDA KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING BOG'LANISHLARI: NUTQNI O'STIRISH.

Toshniyozova Dildora
O'zDJTU 2-kurs magistranti

Globalashuv jarayoni insonlardan o'z ona tilidan tashqari yana bir necha xorijiy tillarni o'rganishni taqozo qilmoqda. Bejizga buyuk bobomiz A.Navoiy "Til bilgan-el biladi" deb aytmagan. Hozirgi tadqiqotlar til o'rganishni erta yoshda boshlash samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi. Hadisda qayd etilganidek, "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir". Yangilanayotgan O'zbekistonimizda ham xorijiy tillarni o'rganish masalasiga qat'iy e'tibor qaratilgan. Xorijiy tillarni o'qitishda, xususan ingliz tilini o'qitishda dunyoning yetakchi tashkilot va universitetlar hamkorligida yangicha yondashuv asosida dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Davlat tassarufidagi hamda xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamlı loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarini xususan, ingliz tilini bolalikni ilk yoshida o'qitishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning muhimligi va aynan turli o'yinlar orqali til ko'nikmalari oson o'zlashtirilishi yuzasidan fikrlar yoritilgan.

O'tgan davr mobaynida sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda, xususan: "milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o'yinlar va o'yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi¹²².

Mavjud muammolarning yechimi, albatta kichik yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'qitishning samarali tizimini yaratib, til o'rganishga interfaol metodlardan, rolli o'yinlardan keng foydalanib, moshg'ulotlarni olib borish sanaladi.

Kichik yoshdagi bolalarga rolli o'yinlar orqali ingliz tilini o'rgatishda ma'lum xususiyatlarni e'tiborga olish zarur. Masalan: ingliz tilini rolli o'yinlar asosida o'rgatishda, agarda siz kompyuter o'yinlari ishqibozi bo'lsangiz, u holda yoqimli mashg'ulotni foydalisi bilan uyg'unlashtirib borish imkoni mavjud: o'yin o'ynash jarayonida ingliz tilini o'rganish mumkin. Agar o'yinni to'g'ri tanlasangiz, bu jarayon bolani o'ziga rom etishi aniq.

¹²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9-sentabr, PQ-3261-son Qarori.



Rolli o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganishda, avvalo quyidagilarga aniqlik kiritib olish zarur:

o bu yerda biz ingliz tilini o'rganish uchun maxsus chiqarilgan o'yinlar emas, balki oddiy o'yinlar xususida so'z yuritamiz;

o siz o'yinlarni o'z original ovozi va interfeysi bilan o'ynasangizgina biz keltiradigan dalil va tavsiyalarimiz to'g'ri hisoblanadi;

o o'yin orqali ingliz tilini o'rganish uchun, siz bungacha mazkur til borasida loqal boshlang'ich bilimlarga ega bo'lishingiz shart. Tilni "noldan boshlab" o'yinlar vositasida o'rganishning aslo imkoni yo'q.

Ingliz tilini o'rganishda o'yinlarning foydasi nimada?

1. Yoqimli mashg'ulot foydalisi bilan aralash keladi.

Bu bolaga maktabdagi dars emas – zerikarli matnlarni o'qib, sababini tushunmasdan fe'lni tushlash talab etilmaydi. O'yinlarda aniq maqsadlar bor – harbiy bazaga kirib olish, jinoyatchini aniqlab zararsizlantirish, qadimiy qaroqchilar makonining jumbog'ini yechish. Bu kabi qahramonona ishlar uchun kompyuter oldida o'tirib olganча, bola o'zi yaxshi bilmagan tilda undan nima talab etishayotganini o'rganib olishga erinmaydi. O'yinni tanaffusga qo'yib turib, notanish so'zlarning tarjimasini izlaydi. Muhimi – topshiriqni muvaffaqiyatli uddalash o'yinchida ijobiy hislarni keltirib chiqaradi hamda o'yinni, tabiiyki, ingliz tilini o'rganishni ham davom ettirishga undaydi.

2. Yangi so'zlarni o'rgatadi.

Dialoglarda hamisha yangi so'zlar uchraydi va inventarda lipillab ko'rinadi. Tez-tez takrorlangani uchun va aynan o'sha onda, o'sha vaziyatda kerak bo'lgani sababli ham so'zlar osongina esda qoladi.

3. O'yin – interfaol vosita.

Film yoki serialdan farqli o'laroq, o'yinlarda istasa-istamasa boshqa personajlar bilan birgalikda harakat qiladi: ularning ko'rsatmalariga amal qiladi, dialoglarda kerakli qatorni tanlaydi. Biror harakatni amalga oshirib, shu onning o'zidayoq unga javob harakati oladi, shu qatori verbal – nutq vositasida ham. Futbol o'yinida to'ppa-to'g'ri hujumchining oyoqlari ostiga borib yiqilsangiz – sharhlovchi xitob qiladi: "Oh, what a terrible foul!". Buning ustiga, o'yinlar odatda filmlardan ko'ra ancha ko'p vaqt egallaydi – o'rtacha 10–15 soat. Shu bois geymer boshqa personajlarning talaffuzi va ovozigina oson ko'nikib hamda tobora yaxshiroq tushunib boradi.

4. O'yinlarda xilma-xillik bor.

O'yinlarning syujetlari turlicha: o'rta asrlardagi ziddiyatlar, kelajakdagi janglar, detektiv tekshiruvlar, kriminal tortishuvlar... Ularning tili ham turfa: "Jodugar" ("Vedmak")dagi savodsiz dehqonlar tilidan tortib "Watch Dogs 2"dagi kaliforniyalik o'smirlarning ko'cha tiligacha. Ularda hatto grammatika ham turli-tuman: qayerdadir ingliz tilining qirollar nutqida qo'llanadigan kitobiy ko'rinishi, yana bir joyda esa – hatto tilning asosiy qoidalarini ham chetlab o'tuvchi norasmiy ko'cha tili.

Qaysi o'yinlarni o'ynash kerak?



The Last of Us

Naughty Dog studiyasi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur o'yin juda ko'p sonli mukofotlarni qo'lga kiritgan, o'yinchilar va tanqidchilarning maqtovlariga sazovor bo'lgan. U ingliz tilini o'rganayotganlar uchun ham juda foydalidir.

Uning ovozlashtirilishi eng yuksak darajada amalga oshirilgan, shuning uchun qahramonlari xuddi haqiqiy tirik insonlardek gapiradi. Unda jonli nutqning barcha nozikliklari hisobga olingan: aksent (undagi Joel texaslik bo'lgani uchun nutqida janubliklar aksenti yaqqol seziladi), nafas olishlari (qahramon zombini zo'rg'a daf etishi bilan, uning yengil nafas olishini eshitasiz), talaffuz aniqligi (agar qahramon o'z-o'zi bilan gaplashayotgan bo'lsa, buni sal pastroq ovozda, ming'irlab gapiradi). Bir so'z bilan aytganda, o'yinda siz oddiy ovoz yozuvlaridan farq qiluvchi – muayyan vaziyatga mos jonli nutqni eshitasiz.

Sifatli ovozidan tashqari, The Last of Us tilida so'zlashuvga oid ko'plab qiziqarli ifodalar ham uchraydi, masalan: Mumbo Jumbo, Now we're talking, No sweat va hokazo.

Nega aynan beshinchi qismi? Chunki, avvalo, unda uchta asosiy personaj bor, demak – uch xil til namunasi. Qolaversa, GTA 5 o'ta keng ko'lamli o'yin, unda ko'plab ikkinchi darajali personajlarga duch kelasiz; ulardan har birining tilida o'ziga xos xususiyatlar, o'z aksenti mavjud. Masalan, undagi Franklin amerikacha ko'cha slengida gapiradi; ebonics deb nomlanuvchi bu sleng ayrim qora tanlilar tomonidan qo'llanadi va tan olingan teng huquqli til turi hisoblanadi.

Bu o'yinda o'z tok-shousiga ega radio, televideniye, internet va hatto kinoteatrlar bor. Ammo til masalasida ehtiyot bo'lish kerak: GTA 5 qahramonlari nutqida so'kinishlar ko'p. Ularni bilib qo'yish mumkindir balki, ammo amalda qo'llamagan ma'qul.

Geralt sarguzashtlariga bag'ishlangan o'yinning yakunlovchi qismi ingliz tilining xilma-xilligini aks ettirishi nuqtai-nazaridan ham qiziq. O'yin qahramonlarining aksariyati britanacha aksentda so'zlashadi, ammo Geraltning gapirishini eshitasangiz – go'yoki boyagina AQShdan qaytib kelgandek bo'lasiz.

O'yinda matnlar juda ko'p: sehr-jodu duolari, damlamalar va qurollar tavsiflari, dialoglardagi javob variantlari. Xullas, ingliz tilining yozma shakli bilan shug'ullanish uchun ham zo'r imkoniyat.

Mazkur o'yinni interfaol kinoga qiyoslash mumkin. Albatta, bemalol oyoq uzatib o'tira olmaysiz bunda: o'yinda dialoglar juda bisyor, ularda tezlik bilan mos javobni tanlashingiz kerak bo'ladi. Ko'pincha to'g'ri javob variantlari bitta so'zdan iborat bo'ladi, ammo erinmang – o'yinni tanaffus rejimiga o'tkazib qo'yib, uyalmasdan lug'atga qarang. Zero, noto'g'ri javob berib qo'ysangiz, bosh qahramonlaringizdan istalgan biri halok bo'lishi mumkin.

Darvoqe, o'yin tili unchalik murakkab ham, juda xilma-xil ham emas, shu bois Heavy Rain – yangi o'rganayotganlar uchun eng yaxshi tanlov.



Telltale tomonidan ishlab chiqarilgan o'yinlar – tanlash imkoniyatiga ega kinematografik voqealardir. Ular Heavy Rain'ni ham eslatib yuboradi: ekshen-sahnalar va tarmoqlangan dialoglar o'rin almashib turadi. Telltale shu paytgacha "Taxt o'yinlari" kinokartinasining adaptatsiyasini, The Walking Dead, Batman va boshqa o'yinlarni chiqargan. Biroq biz uning mahsulotlari orasidan eng qiziqarlisi va "balog'atga yetgan"ini tavsiya etamiz – The Wolf Among Us.

Unda afsonaviy, ammo shafqatsiz olamda yashovchi Bigbi ismli maxluq-odam voqeasi oddiy til bilan hikoya qilinadi. Komikslar uslubi tufayli esa, ekranda nimalar sodir bo'layotganini osonlik bilan anglab olish mumkin.

Rolli o'yinlar vositasida ingliz tilini o'rganishda quyidagi maslahatlarga e'tibor qaratish foydadan xoli bo'lmaydi.

1. O'ylab va faol o'ynang: syujetni yaxshi tushunishga harakat qiling, rolklarni o'tkazib yubormang, notanish so'zlarning ma'nolarini erinmasdan lug'atdan tekshirib ko'ring.

2. Eng yaxshisi – inglizchada o'ynash uchun, avval o'zingiz ona tilingizda o'ynab ko'rgan o'yinni tanlang. Shunda siz u yoki bu vaziyatda gap taxminan nima haqida ketayotganligini eslaysiz, shu tariqa original matnni anglashingiz oson kechadi.

3. Agar juda qiynalsangiz, boshlanishiga o'zbekcha subtitrlardan foydalansangiz ham bo'ladi. Bu sizga o'yindagi voqealardan xabardor bo'lib borishda hamda notanish so'zlarning tarjimasini aniqlashda yordam beradi. E'tiborli bo'ling: o'zbekchaga o'girilgan – lokalizatsiya qilingan matnlar asliyat bilan hamisha ham so'zma-so'z to'g'ri kelmaydi. Qaysidir original jumlar matndan sal uzoqroq tarjima qilingan bo'lishi ham mumkin.

4. Eng asosiysi: inglizchani xuddi shu tilda so'zlashuvchilar singari gapirib ketishni faqat o'yinning o'zi bilan uddalab bo'lmaydi. Til o'rganish uchun an'anaviy akademik yondashuv (guruh mashg'ulotlari, grammatik mashqlarni bajarish va hokazo) bilan ko'ngilochar yo'nalishni o'zaro uyg'unlashtirib olib borish lozim. Shu bois ham yuqoridagi kabi o'yinlarga faqatgina til o'rganishdagi qo'shimcha, yoqimli vosita sifatida qarash o'rinlidir.

Xulosa o'rnida soha mutaxassislarining ilmiy kuzatishlari va tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 70 foizini 6 yoshgacha bo'lgan davrda olishi, aynan bola shaxsining rivojlanishida maktabgacha ta'limning o'rnini nehog'li muhimligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralari belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Davlat talablarining maqsadi ham mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni



tarbiyalashdir. Demak aynan bolalarning ilk yoshida organgan bilimi ajdodlarimiz aytganidek “toshga bititilishi” bejis emas ekan. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda xorijiy tillarni ham bolalarga erta yoshida o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa ushbu bilim, ko'nikma, malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, bola xorijiy tillarni o'z ona tilisi kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi. Ta'limiy o'yinlar bolada nafaqat bilim ko'nikma, malakalarni shakllantiradi balki shu bilan birga u bolani jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtmoyiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-son qarori.
2. O'z DSt 17368–2020 “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash haqida”.
3. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. — T.2016.
4. Algeo, J (2010) 6th ed. Origin and Development of English Language. Wordsworth.
5. <https://www.cde.ca.gov/sp/cd/re/caqdevelopment.asp>. Ages and Stages of Development.